

O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR  
UYUSHMASI

GULSEVAR UMRZOQOVA

# YOMG'IR

She'rlar



TOSHKENT  
“ADABIYOT”  
2024

Badiiy rahbar:  
**Sirojiddin SAYYID**

Mas'ul muharrir:  
**Botir ERGASHEV**

Nashr uchun mas'ul:  
**Hulkar SHERZODOVA**

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tomonidan an'anaviy tarzda o'tkazilib kelinayotgan Respublika yosh ijodkorlarining Zomin seminarida 2024-yildan boshlab mamlakatimizning turli hududlarda faoliyat yuritayotgan ijod maktablari o'quvchilari ham ishtirok etishmoqda. Atoqli adiblar nomi bilan atalib, ta'lim jarayonida tilimiz va milliy adabiyotimizni chuqur o'rganishga, badiiy ijodga alohida ahamiyat berilayotgan mazkur o'quv dargohlaridan badiiy ijod bilan shug'ullanayotgan ko'plab yoshlар yetishib chiqmoqda.

Ijod maktablarining eng iste'dodli o'quvchilari ijodi kitob holida chop etilib, Siz adabiyot muxlislari hukmiga havola etilmoqda. Ulardan biri **Abdulla Oripov nomidagi ijod maktabi** o'quvchisi **Gulsevar Umrzoqovad**ir. Muallif hali yosh. Uning yozganlarida ma'lum kamchiliklar bo'lishi tabiiy. Lekin unda o'qish, o'rganish, izlanish, o'zini ijodiy jihatdan yuksaltira borish imkoniyati bor. Bu uning o'ziga bog'liq.

Kitob orqali yosh muallifning ko'ngil bitiklarini o'qib, uning ijod bulog'didan bahramand bo'lishingiz mumkin.

ISBN 978-9910-8882-7-4

© G.Umrzoqova, 2024  
© "Adabiyot", 2024

## **ABDULLA ORIPOV XOTIRASIGA**

Samo ko'zgusini yerga tutgan dam,  
Nazmiy gulshan aro barq urdi ijod.  
Qo'ng'irtov bo'yida surgancha xayol,  
Uni shoir qilib yaratdi hayot.

So'zni ko'ngil bilan terdi qirlardan,  
Ko'zlarin qadagan tog'lar purviqor.  
Daryolar mavjiga mudom jo'r bo'ldi.  
"Vatanim manim" deb kuyladi ilk bor.

So'z ila qayradi nazmiy shamshirin,  
Qalblarni zabit etdi she'rarin kuchi.  
Zarhal satrlarda dur kabi ma'no,  
Yurt madhi yangradi ko'klarni quchib.

She'riyat osmonin bezagi bo'lgan,  
Ul "Mitti yulduz"da baytlarin bitdi.  
Ishq vasfin ta'riflab, ko'klam chog'ida  
Muhabbat poyiga guldasta tutdi.

Shonli kunlarini yodimga olib,  
Xotirlab yozganim shu bir parcha she'r.  
Mangu tiriklikning bayoti bo'lib,  
Qutlug' bir saharda ko'z ochdi shoir.<sup>1</sup>

---

<sup>1</sup> Matnazar Abdulhakim satri

## YOMG'IR

Atrof bori chang-u g'uborin,  
Yuvdi yomg'ir, beg'ubor havo.  
Ona zamin bo'ldi bir zumda,  
Illatlardan toza, musaffo.

Gul bargida yomg'ir tomchisi,  
Menga baxtdan aytadi qo'shiq.  
Tabiatga tahsin, tashakkur,  
Har tomchida bir ilohiy ishq.

Yomg'ir, yuvgin ko'nglim g'uborin,  
Ma'yus o'ylar tark etsin meni.  
Gulchambarlar taqib men boray,  
Har yomg'irda seni ko'rgani.

## QUYOSH

Ey quyosh, olamni etding munavvar,  
Iltting muzlagan ona tuproqni.  
Mehr tafti ila qizdira olding,  
Aritding bu ojiz, mudroq titroqni.

Ey quyosh, nurlaring o'tkir nayzasin,  
Sanchgin ayamasdan mitti yurakka.  
Olovli tig' tafti yondirsin, mayli,  
Aylanmay muzlikda qolgan ertakka.

Yuragim, mayliga kuydirlar tanim,  
O'zi dunyolarni suysin, suydirlar.  
Muzlarni parchalab, o't qalab she'rim,  
Mudroq yuraklarni mayli uyg'otsin.

## ORZU

Vatanimdir hur O'zbekiston,  
Jannatmakon bir bog'-u bo'ston.  
Bo'lgay maqtovlari zo'r doston,  
Hech tolmayman orzu qilishdan.

Derlar: orzu – maqsadning boshi,  
Hayotning u shirin sirdoshi.  
Qalbimda, ko'r, yurtim quyoshi,  
Hech tolmayman orzu qilishdan.

Orzu bilan hosildir murod,  
Tushkunliklar bizlar uchun yot.  
Umidimiz biz uchun qanot,  
Hech tolmayman orzu qilishdan.

Mening uchun ona yurt aziz,  
Gard yuqmasin, hech tegmasin ko'z.  
Omon bo'l der barcha o'g'il-qiz,  
Hech tolmayman orzu qilishdan.

Maqsadli bo'l der ustozlarim,  
Ustozlarga qilaman ta'zim.  
Bajaryapman ular talabin,  
Hech tolmayman orzu qilishdan.

Hamroh bo'lib sabr, qat'iyat,  
Sinovlarni yengamiz, albat.  
Vatan obod, ezgudir niyat,  
Hech tolmayman orzu qilishdan.

## AYOL

*Abdulla Oripovning  
"Ayol" nomli she'rini o'qib*

Baxtning bir tomchisin etolmasdan his,  
Ma'sum qaro ko'zlar yo'lg'a ravona.  
Yolg'iz bu boshiga tushgan dardlarni  
So'yladi beshikka tunlar pinhona.

Mehrsiz yo'llarda kezib u sarson,  
Endi tushlarida yorin ko'radi.  
Sabr-u matonatga o'rab bu boshni,  
Jimgina taqdirga ko'nib qo'yadi.

Yillar ham o'tmoqda, kutmay bir fursat,  
Hijron yuragini ezmoxda yomon.  
Agar bo'lsa senda jindekkina his,  
Farzandin baxtiga aylagil omon.

Shum taqdir to'zg'itgan qaro sochlarin,  
Shu o'tli nigohin rost so'zi deya.  
Aytinq-chi, ne bilan o'lchangay vafo,  
Agar siz bo'lganda kutarmidingiz?

Yuzlari shafaqdan husn olganlar,  
Ko'rkiga jayron ham hayrona ayol.  
Gar yoningda suyanch tog'ing bo'lmasa,  
Nega ham yarardi o'tkinchi chiroy?

Sen Alloh yaratgan ijodsan, ayol,  
Go'zallikning tamal toshi ham senda.  
Sen kimgadir yor, kimgadir ona,  
Asli boring uchun azizsan, ayol!

### YOZILMAGAN MAKTUB

Bisyor edi, sizga aytar so'z,  
To'lib-toshgan edi dardlarim.  
Ojiz qoldi aytmoq-chun, hatto  
Yondaftarda qolgan qaydlarim.

Dardim yolg'iz o'zimga ayon,  
Faqt aytgum, qalam, daftarga.  
So'zlamoqqa betlamas yurak,  
Qalbingizni qo'ymay xatarga.

Qayg'ularim yuqtirmasdan tinch,  
Sirlarimni jimgina yopay.  
Yana uzun o'zga yo'llardan,  
Shifo izlab, davosin topay.

## TUN

Nega buncha uzunsan,  
Yoki behis, beunsan,  
Yechilmagan tugunsan,  
TUN.

Xayollar uchar ko'kka,  
Narvonsiz ular tikka,  
Da'veongmi buyuklikka,  
TUN.

To'lq'anib u yon-bu yon,  
Hislarim qildi isyon,  
Otsin tong. Bergin imkon,  
TUN.

## BAXT

Moviy osmonlardan miltirab shafaq,  
Aziz tongni ko'rmoq emasmi bu baxt?  
Shivirlab tunlarga dardingni aytsang,  
O'kinma, yaxshilik istabdi hayot.

Goh tashvish "keldim" deb eshik qoqqanda,  
Tushunmay yomonlar tig'in sanchganda,  
Ba'zan keng bu olam torlik qilganda,  
O'kinma, sabringni sinabdi hayot.

Osuda kunlarni ko'rmoqlik uchun,  
Kimlardir jimgina ko'z yoshin to'kar.  
Qara, sening boshing uzra Humo qush,  
Hurriyat, erklikning urug'in sochar.

Faqat jilmay, azizam, tabassum qilgin,  
Toki bu dudoqlar ilhomim bo'lsin.  
Mayli, g'amning bori bizga kelsa ham,  
Yashagan umrimiz go'zal yo'l bo'lsin.

## ONA YER

Agar zabon bo'lsaydi unda,  
Ohlaridan dengiz toshardi.  
Bosgan har bir qadamizingizda,  
Gullar emas, gulxan yonardi.

Zamin uchun bir tomchi mehr,  
Topilmaydi, nahot yurakda?  
Axir, ona yer emasmidi,  
Inson nomin tutgan boshida?

"Mulkim" deya qaramoq uchun,  
Avval unga e'tibor kerak.  
Daraxtlarga bolta uribmas,  
Bittagina eking-chi terak.

Agar siz yer bo'lganingizda,  
Shunchasiga ko'narmidingiz?  
Yuzingizga otishsa axlat  
Ko'rmagandek yasharmidingiz?

Ona Yer... u doim hammamizniki,  
Qadrlash ham, albat, burchimiz.  
Tirikmizmi, nafas olyapmiz,  
Yashatmoqqa yetar kuchimiz!

## SHUKRONA

O'n sakkiz ming olamni yaratding to'kis,  
Bugun yuraklarda bisyordir bir his.  
Orzularda uchib, havas otiga,  
Aytamiz shukrona, Tangrim, o'zingga.

Ba'zan botqog'iga botib gunohning  
Yo'rig'idan yurdik bilmay shaytonning.  
Kirdik uzgani gul nafsnинг bog'iga,  
Tavbalar qilamiz Robbim o'zingga.

Borganimiz bo'lzin ilohiy jannat,  
Sotmaylik vijdtonni qilibon minnat.  
Sabr degan so'zda, bilsang, ko'p hikmat,  
Alloh vaslin ko'rmoq eng ezgu niyat.

## ZOMIN SEMINARIDAN ILHOMLANIB

Har shamolga shivirlar yaproq,  
Har yurakda shodlik jilosi.  
Ko'kda qushlar beradi ilhom,  
Har cho'qqida baxt belanchagi.

Lolalar ham bo'lib poyandoz  
Xush kelding deb qo'shiq aytadi.  
Giyohida ming dardga davo,  
Shabbodalar raqsga tushadi.

Bitib ash'or salobatli viqoriga,  
Kishi to'ymas qarab go'zal jamoliga.  
Unutmaymiz so'lim ijod bog'larini,  
Sog'inamiz o'sha Zomin tog'larini.

## USTOZIMGA

Qo'llarimga tutqazib qalam,  
Vatan, ona so'zin o'rgatgan.  
Mehr urug'ini qalblarga,  
Hayo, nafosat-la o'rnatgan.

Ovozingiz biz uchun ustoz,  
Ona allasidek yoqadi.  
Yigirma besh o'g'il-qiz sizga,  
Hayrat ko'zi bilan boqadi.

Ustoz desa ko'zim o'ngida,  
Gavdalalar sizning siymongiz.  
Ko'ring, bugun, aziz ustozim,  
Mehnatingiz qolmadi izsiz.

## SALOMATLIK POSPONLARIGA

Qadringizni yana bir bor bildik, mana,  
El aro jasoratda bo'ling afsona.  
Jonin fido aylab bemorga parvona,  
Sizga yana ta'zimdamiz, shifokorlar!

Kunni tunga, tunni kunga uladingiz,  
Yurtga faqat sog'-omonlik tiladingiz.  
Xalqingizga yaxshilikdan kuyladingiz,  
Sizga yana ta'zimdamiz, shifokorlar!

Dilda, tilda shirin kalom hamda duo,  
Shu duolar ijobatin ko'rsat, Alloh.  
Shifo bergen, etib darddan mosuvo,  
Sizga yana ta'zimdamiz, shifokorlar!

## BOLALIGIM

Bolaligim quvonchga to'la,  
Mehrimni do'stlarim bilmaydi.  
Bilsa hamki shunchaki sanab,  
G'o'r bolalik ko'zga ilmaydi.

Bolaligim sog'ininchga to'la,  
Sog'inaman yonida turib.  
Yuragimni o'rab ajib his,  
Boraman men baxtga yo'g'rilib.

Bolaligim orzuga to'la,  
Yuragimda bisyor imkonlar.  
Bu imkonlar urug'in barin  
Biling, qalbga do'stlar ekkанlar.

Bolaligim baxtlarga to'liq.

## OLMA

Menman shirin, zo'r olma,  
Hammaga g'amxo'r olma.  
Yesang chiqarma yoddan,  
Ko'payar temir moddang.

## NA'MATAK

Na'matakman, yuz dardga davo,  
Toshmalarni yo'qotaman tez.  
Boshqasin qo'y, damlamamni ich,  
Qilayotgan bo'lsang gar parhez.

## KITOB

Kitobda bor ko'p bilim,  
O'qib o'rganining ilm,  
Har bir satrida sehr,  
Jo'sh urar qalbda mehr.

## ARIQCHA

Mening dardim tinglagan,  
Goho birga yig'lagan.  
Loylatsam bag'rin tilgan,  
Tinmay oqqan ariqcha,  
Jo'shqinlikdan ber picha.

Bildim seni sirdoshim,  
Suving yuvar ko'z yoshim.  
Uyg'ot ishonch, bardoshim,  
Shildiragan ariqcha,  
Jur'atingdan ber picha.

To'xtamaysan, oqasan,  
Qaylargadir shoshasan.  
Boshqachasan, boshqasan,  
Shildiragan ariqcha,  
Menga vaqt ajrat picha.

## ONA

Sehri bordir so‘zini,  
Mehri bordir yuzini.  
Gulyuzli onajonim,  
Duoda qo‘li doim.

Ardoqlab o‘g‘il-qizin,  
Ikki qilmaylik so‘zin.  
Dilda sabot, o‘giti,  
Jannatim – onam o‘zi.

Ko‘rsatib to‘g‘ri yo‘lim,  
Erkalab deydi: “Gulim”.  
Siz – hayotimning naqshi,  
Boringiz qanday yaxshi.

## TONG

Iliqlik taratib ko'nglimga,  
Ajib his uyg'otib dilimga.  
Nasiba, rizq berib elimga,  
Tong otar.

Uyg'otib tabiat, borliqni,  
Ulashib ham ishqqa yorlikni.  
Anglatib olamda borlikni,  
Tong otar.

Bulbullar izhori boshlanib,  
Ijobat duolar choshlanib.  
Ko'zlar shu duodan yoshlanib,  
Tong otar.

Tong, mayli, biz bilan teng sirlash,  
Barchaga rizq ulash, baxt ulash.  
Sen bizga singib ket va birlash,  
Tong otar.

## SAJDALARDA EKAN BIZ IZLAGAN ISHQ

Nurli yuzlaringda bir xilqat bo'lib,  
Kelar yo'llaringga bo'lqandim oshiq.  
Sabr chertganida qalbim dutorin,  
Sajdalarda ekan men izlagan ishq.

Muhabbat – yurakni allalovchi kuy,  
Yugurik xayolda chopqillaydi baxt.  
Hayo libosida yuribman-u, lek  
Sajdalarda ekan men izlagan ishq.

Mayli, osmon qadar sevmagin meni,  
Mayli, oltin to'la saroy shart emas.  
Faqat bir iltimos, eslasang meni,  
Haqqimga duo qil, izhor kerakmas.

Olib kir qalbimga vafo suratin,  
Sadoqat niholin ekib kelayin.  
Qur'on iforidan taralsin nurlar,  
Laylingmas, Xadichang bo'lib borayin.

Yo'q, suyganim emas, halolim bo'lgin,  
Joynamoz boshida yo'lovchim bo'lgin.  
Mushk-anbaring bo'lay, jannatim bo'lgin,  
Sajdalarda ekan biz izlagan ishq.

## MUSTAQILLIK

Bugun ozod, hur o'lkam,  
Xalqlar ahil yashashar.  
Bunday go'zal o'lkaga,  
Mustaqillik yarashar.

Bir chetda turmay doim,  
Yurtni deb kurashaylik.  
Sport, o'qish, san'atda,  
Mard kuchin ko'rsataylik.

O'zbekiston, sen – onam,  
Kamolingga yayrayman.  
Shoira qizing bo'lib,  
Sen haqingda kuylayman.

## O'ZBEKISTON

Gulzor bo'lib bulbullarga,  
Qo'nim topgan senda har jon.  
Shukr aytib ne'matingga,  
Go'zal yurtim O'zbekiston.

Har yo'lingda cheksiz imkon,  
O'lkamdirsan jannatmakon.  
Ta'zimdaman senga har on,  
Jannati yurt O'zbekiston.

Ishonch, hurmat ustozingga,  
Har kasb-kor e'zozingda,  
Sen-la viqor ovozimda,  
Sajdagoh yurt O'zbekiston.

Mehring doim qilaman his,  
Baxtim bo'lar yana to'kis.  
Gard yuqmasin senga hargiz,  
Aziz yurtim O'zbekiston.

## DADAJONIMGA

Tunlarimni o'tkazib bedor,  
Sog'inchlarim isyon qilyapti.  
Menga bo'lmas hech tasalli kor,  
Dada, sizni ko'rgim kelyapti.

Orqamdagi suyangan tog'im,  
Ko'ksim uzra gullagan bog'im.  
Mehr quyoshining asl timsoli,  
"Qizim", desa dadam nigohi.

Farishtadek iboda yuray,  
Faxr tuying, yuzingiz bo'lay,  
Ishonchingiz o'zim bo'laman,  
Dada, sizni yaxshi ko'raman.

## KITOB TOG'LARI

Ming asrki barhayot,  
Bo'lgan zaminga najot.  
Senda qat'iyat, sabot,  
Kitob tog'lari.

Chashmang, bulog'ing zilol,  
Tepangda giryon hilol.  
Topmagin sira zavol,  
Kitob tog'lari.

Sen buyuklik nishoni,  
Ming jonivor oshyoni.  
Cho'qqing quchar samoni,  
Kitob tog'lari.

Davo, giyohga konsan,  
Ulug'likdan nishonsan.  
Ko'rmaganga armonsan,  
Kitob tog'lari.

Bunda ming bir afsona,  
Xarsangtoshda so'z yana.  
Qildim, mana, hikoya,  
Kitob tog'lari.

## G'URURLI QALB

Yana qalam olmoqqa undadi dardlar,  
Nohaqlikdan dil g'azablanar.  
Bo'g'ziga tigilib kelsa-da dardlar,  
G'ururli qalb jim azoblanar.

Mayli, xo'rlang uni o'yinchoq qilib,  
O'zgalar ko'zida qo'g'irchoq qilib.  
Shunda ham oshkora qilmas miq etib,  
G'ururli qalb jim azoblanar.

Ishongan do'stlari xanjar qadadi,  
Soxtalar mehri ham og'ir botadi.  
Qiynayvermang, axir, bo'ldi, yetadi  
G'ururli qalb jim azoblanar.

Qarshingizda kulib turar ko'zlari,  
G'am-g'ussa sezdirmas so'zlari.  
Uni abgor etgan axir – o'zlari,  
G'ururli qalb jim azoblanar.

## ONAMGA XAT

Do'stimga qiziqmas, hatto borligim,  
Zo'rligim yo'q, lekin bordir zorligim.  
Barchadan eng a'lo husni oyligim,  
Onajon, men sizni juda sog'indim.

Ko'nglingiz og'ritmoq bo'ldi oson ish,  
Yonimda yo'q hech kim kelganda tashvish.  
Xatoyim anglamay, qilmadim taftish,  
Onajon, men sizni juda sog'indim.

Kuysam-da kimgadir sezdirmay kuydim,  
Bandasi ikkinchi, Allohni suydim.  
Faqat sizdan toza mehrni tuydim,  
Onajon, men sizni juda sog'indim.

Jonim bergenlarim jon bermadi hech,  
Jon, mayli, aqalli, yon bermadi hech,  
Chin do'stlar hisobi son bermadi hech,  
Onajon, men sizni juda sog'indim.

Bugun yolg'onlardan yig'laydi yurak,  
Volidam, oftobim, o'zingiz kerak.  
Neni ham tilardim jannatdan bo'lak,  
Onajon, men sizni juda sog'indim.

## BAHOR TONGI

Deraza chetidan boqaman asta,  
Bezovta bo'lmoqda ne uchun qushlar?!  
Yerlar ham bo'shashgan, go'yoki xasta  
Nahotki, ijobat bo'lmoqda tushlar!

Ne uchun mashina tovushlari ko'p?  
Balki bo'lganidan havo iliqroq,  
Quyoshbobo, mayli, erta chiqsin, xo'p,  
Lek moziy taftidan ko'ngil sovuqroq.

Daraxtlar burkanar yashil niqobga,  
Atrof o'ranganday pushti rang bilan.  
Qaniydi, bormasa hech kim nifoqqa,  
Axir bahor keldi, kelsin fayz bilan.

Nihoyat his qildim bahor taftini,  
Olam ham deyarli yorishib qoldi.  
Yugurib shaylanay ibodat uchun,  
Bir zum xayollarim qorishib qoldi.

## ONAMGA

Yuragim tubida yotar bir alam,  
O'ylarim tuz bilan siyladi yaram.  
Ne uchun, bilmadim, ko'zlarimda nam,  
Onamni hech mahkam quchib qo'yabman!

Sochlarda ko'rindi buncha erta oq,  
Kulsa yuzlaridan nurlanar har yoq.  
Dastimdan dunyoda ko'rmadi ardoq,  
Onamni hech mahkam quchib qo'yabman!

Kel, desa borgani topolmadim vaqt,  
Axir onamasmi beminnat toj-taxt.  
Borligining o'zi menga katta baxt,  
Onamni hech mahkam quchib qo'yabman!

O'zin qo'yib meni o'ylaydi har on,  
Sog'inch dardingizga bo'lay men darmon.  
Kech bo'lganidan so'ng qilmayin armon,  
Onamni hech mahkam quchib qo'yabman!

## ISHONCH

Ishonchim, sen meni tark etma,  
Sinovlar qo'rquvga solmasin.  
Maqsadlar yo'lida adashmay,  
Yugurgan oyoqlar tolmasin.

Ishonchim, sen meni tark etma,  
Tillarim aytmasin nolishni.  
Ey hayot, men uchun tuhfa et,  
Maqsadning bag'rida qolishni.

## ESLAB

Yurakdan otildan she'rlarim bisyor,  
Tugamay qolyapti, xayollar chalg'ib.  
Tuyg'ular aldamchi, hammasi bekor,  
O'yalarim yuribdi qaydadir sang'ib.

Manzildan adashgan hayot egasi,  
O'z yo'lin yo'qotgan shamol misolman,  
Qay daraxtda ekan baxtning mevasi,  
Topolmay qiyalgan xasta bemorman.  
Ha, chorasisiz qolgan oddiy insonman...

**MUNDARIJA**

Abdulla Oripov xotirasiga .....	3
Yomg'ir .....	4
Quyosh .....	5
Orzu .....	6
Ayol .....	7
Yozilmagan maktub .....	8
Tun .....	9
Baxt .....	10
Ona yer .....	11
Shukrona .....	12
Zomin seminaridan ilhomlanib .....	13
Ustozimga .....	14
Salomatlik posponlariga .....	15
Bolaligim .....	16
Olma .....	17
Na'matak .....	17
Kitob .....	17
Ariqcha .....	18
Ona .....	19
Tong .....	20
Sajdalarda ekan biz izlagan ishq .....	21
Mustaqillik .....	22
O'zbekiston .....	23
Dadajonimga .....	24
Kitob tog'lari .....	25
G'ururli qalb .....	26
Onamga xat .....	27
Bahor tongi .....	28
Onamga .....	29
Ishonch .....	30
Eslab .....	30

**UO'K:** 821.512.133-1(081)

**KBK:** 83.3(50'zb)

**G 40**

**G 40      Umrzoqova, Gulsevar**

**Yomg'ir** [matn]: *she'rlar / Gulsevar Umrzoqova.*

– Toshkent: "Adabiyot" nashriyoti, 2024. – 32 b.

ISBN 978-9910-9372-7-9

*Adabiy-badiiy nashr*

GULSEVAR UMRZOQOVA

**YOMG'IR**

*She'rlar*

Muharrir: *M. Nurmetova*

Badiiy muharrir: *A. Umarova*

Sahifalovchi: *A. Qayimov*

Musahhih: *I. Isamuhammedova*

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi

"ADABIYOT NASHRIYOTI" MCHJ

Nashriyot litsenziysi: AI № AA 0043. 27.01.2020.

100129, Toshkent shahri, Markaz-15. 1/90.

Тел: (98) 128-30-04.

Bosishga 20.08.2024-yilda ruxsat etildi.

Ofset qog'oz. Qog'oz bichimi 70x90<sup>1/32\*</sup>

Ofset bosma. Hisob-nashriyot t. 2.0.

Adadi 500 nusxa.



"MASHHUR-PRESS NASHRIYOTI" MCHJ

bosmaxonasida chop etildi.